

YOZMA NUTQ FAOLIYATINI O‘QITISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY TA’LIM
YONDASHUVLARI

Ortiqova Tursunoy Jumanazar qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

ortiqovaturunoy66@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22139288>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ommaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot yetakchi sifatida jarayonli-janr yondashuvining o‘ziga xos xususiyatlari alohida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: jarayonga asoslangan yondashuv, natijaga asoslangan yondashuv, jarayonli-janr yondashuvi, yozish ko‘nikmasi, rejalashtirish, lingvistik kodlash, tahrirlash

Abstract. This article analyzes several common approaches in teaching writing. Within those approaches, specific peculiarities of the process-genre approach were particularly mentioned as leading one in the research.

Keywords: process-oriented approach, product-oriented approach, process-genre approach, writing skill, planning, linguistic coding, revising

Kirish. Xoorijiy tilni chet tili sifatida o‘rganayotgan talabalarning yozma nutq faoliyatini rivojlantirish uchun mazkur faoliyatni o‘qitishga mo‘ljallangan metodik yondashuvlarni tahlil qilish zarurdir. Yozma nutqni o‘qitishda jahon va milliy tajribalarda keng qo‘llaniladigan qator yondashuvlar mavjud. Ulardan ma‘lum va mashxurlari: *natija asosli yondashuv, jarayon asosli yodashuv, janr asosli yondashuv va kollaborativ yoki hamkorlikdagi yondashuvlardir.*

Adabiyotlar tahlili. Eronlik olimlar Reza Bagheri Nevisi va Zahra Adibrad yozma nutqni o‘qitishning yozuvga yondashuvning *maxsulotga/natijaga yo‘naltirilgan (product-oriented approach)* turi talabalardan faqat matn shaklini tayyorlashiga asoslangan bo‘lib, ushbu yakuniy mahsulotga baho va fikr bildiriladi deb ta’kidlaydilar. Natijaga asoslangan yondashuv yozuvning mahsuliga, grammatik to‘g‘rilik va strukturaviy aniqlikka e’tibor qaratadi ya’niyki, faqat yozma matnning texnik tayyorlik mezonini ustun qo‘yiladi, va ushbu yondashuv ayrim manbalarda *matnga asoslangan yondashuv (text-oriented approach)* nomi bilan ham yuritiladi [1].

Natijaga asoslangan yondashuvdan farqli ravishda, *jarayon asosli yondashuvda (process-oriented approach)* asosiy e’tibor yozishning bosqichlariga yo‘naltiriladi, ya’ni unda g‘oya yaratishdek boshlang‘ich bosqichdan tayyor matnni tahrirlashgacha bo‘lgan yakuniy faoliyatlar nazarda tutiladi va kognitiv yondashuv ham deb yuritiladi. Mazkur yondashuv, uning asoschilari taniqli yevropalik olimlar Linda Flower va John Hayeslar tomonidan asosiy uchta bosqichga bo‘lib tasniflanadi. Mazkur bosqichlardan birinchisi matnni *rejalashtirish* ya’ni *planning* bosqichi bo‘lib bu bosqich matn yozish faoliyatini boshlashdan avval amalga oshiriladigan mavzuga aloqador g‘oyalar yig‘ish, ularni tashkillashtirish umuman olganda yozilajak matn “arxitekturasini”ni tuzish bilan xarakterlanadi va u inglizcha boshqa boshqa termin bilan aytganda “*text outlining*” deb ham yuritiladi.

Navbatdagi kognitiv jarayon bosqichi aqliy faoliyat maxsuli bo‘lgan g‘oyalarni *lingvistik kodlash orqali matnga aylantirish* inglizcha “*translating*” termini bilan ifodalanadi. Va yozuvning so‘nggi kognitiv bosqichi *matnni qayta ko‘rib chiqish* – “*revising*” etapida avvalgi bosqichda yozilgan matn qoralamasi (*written draft*) ning xatolari ustida ishlaniladi, tahrirlash faoliyati amalga oshadi [2].

Yozuvni o'qitishga qaratilgan navbatdagi asosiy yondashuv bu – janrga asoslangan yondashuvdir (genre-based approach). Janrga asoslangan yondashuvga ko'ra yozma nutq ma'lum bir kommunikativ maqsad va ijtimoiy kontekst orqali belgilanadi [3]. I Wayan Dirgeyasa janrga asoslangan yondashuv yozuvni o'qitish metodikasiga yangi kirib kelayotganligini ta'kidlab, bu yondashuvda asosiy e'tibor yozilajak matn turiga (report, article, informal letter), uning qaysi ijtimoiy doirada mo'ljallanganligi (audience) va unda qo'llaniladigan til birliklari xususiyatlariga qaratiladi deb xulosa qiladi [4].

Tadqiqotimiz markazidagi navbatdagi tahlilga olingan yondashuv nisbatan yangi va yozma nutqni o'qitishda zamonaviy yo'nalish sifatida tanilayotgan jarayoniy-janr yondashuvidir (*process-genre approach*). Mazkur yondashuv jarayon asosli yondashuv va janrli yondashunlarning yozuv faoliyatini o'qitishdagi mavjud kamchiliklari zahirida o'zaro bir birini to'ldiruvchi ikkita yo'nalishning birikishidan paydo bo'lgan. Ushbu tamoyil asoschilari Richard Badger va Goodith White bu yondashuvni jarayonli o'qitishdagi yozilayotgan matn turi haqida bilim (input), matnda qo'llaniladigan maxsus lingvistik birliklarga bo'lgan e'tiborning kamligi, janriy o'qitishda esa o'quvchilarning ko'proq matn qoliplariga tayanib qolgan passiv yozuvchiga aylanib qolishi kabi noustuvor taraflariga barham berish ehtiyojidan vujudga kelgan yo'nalish sifatida ta'riflaydilar [5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jarayoniy-janrli yondashuv yozuv kompetensiyasini shakllantirishda yozuv matnining strukturaviy talabalar va yozuv jarayonining kognitiv bosqichlarini birlashtiruvchi samarali metodik yo'nalish hisoblanar ekan. Metodik adabiyotlarda yozma nutqni rivojlantirishning yana bir keng tarqalgan shakli sifatida jamoaviy yoki hamkorlikdagi yozish yondashuvi (*collaborative writing approach*) ham alohida ajratilib ko'rsatiladi. Neomy Storchning nazariy yondashuviga asoslanib, Tomas Kos va Friedrich Loe Lara hamkorlikdagi yozishni bir nechta yozuvchining o'zaro interaksiya va kelishuv orqali bitta matnni birgalikda yaratish jarayoni sifatida izohlaydilar. Bu jarayon fikr almashish, mazmun va tuzilmani birgalikda belgilash hamda o'zaro yordam ko'rsatish orqali amalga oshadi [6]. Ushbu yondashuv yuqoridagi yondashuvlardan farqli ravishda, ikki yoki undan ko'proq shaxsning faoliyati mahsuli sifatida namayon bo'ladi va hattoki bu jarayonda yozma matnning paydo bo'lishida o'qituvchi ham bevosita ishtirok etadi. Quyida tahlilga olingan yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari aks etgan jadval namunasi aks ettirilgan (*1-jadvalga qarang*).

1.2-jadval.

Yozma nutqni o'qitish yondashuvlarining o'ziga xos xususiyatlari tavsifi

Yondashuvlar	Asosiy e'tibor	Yozuvga munosabat	O'qituvchining roli	O'quvchining roli
<i>Natija asosli yondashuv</i>	Yakuniy matn sifati, grammatik va	Matn yozish – chiziqli	Tayyor namuna ko'rsatuvchi, matn	Tayyor namulardan o'rganuvchi,

	leksik to'g'rilik (accuracy)	(linear) jarayon	sifatini nazoart qiluvchi va baholovchi, (Pattern presenter, error corrector and evaluator)	lingvistik qoidalarni o'zlashtiruvchi (imitator producer)
<i>Jarayon asosli yondashuv</i>	Yozuv faoliyatining kognitiv bosqichlari: rejalashtirish, qoralama, tahrirlash (planning, drafting, revising	Matn yozish – rekursiv (recursive) ya'ni siklik takroriy jarayon	Jarayonni boshqaruvchi, metodik tirkak beruvchi (Monitor of writing stages,	Kognitiv yozuv jarayonini boshqaruvchi, mantiqiy fikrlaovchi (independent writer, recursive thinker
<i>Janr asosli yondashuv</i>	Ijtimoiy kontekst, kommunikativ maqsad, janr tuzilmasi, lingvistik xususiyatlar (social context, communicative purpose, genre structure, linguistic features)	Matn yozish – auditoriya, matn turiga asoslangan lingvistik birliklar va tayyor qoliplarga asoslangan (social- situational) jarayon	Janr qoliplarini ko'rsatuvchi, janr xususiyatlarini tushuntiruvchi (Scaffolder, Provider of genre patterns)	Janr qoliplariga tayanuvchi, janr xususiyatlariga monand yozuvchi (Guided writer, apprentice writer)
<i>Jarayoniy- janrli yondashuv</i>	Matnning retorik strukturasi (janr talabalari) va	Matn yozish – ijtimoiy- kognitiv	Kognitiv jarayon tashkilotchisi, retorik tirkak	Bosqichma- bosqich va tartib bilan matn yaratuvchi, janr

	yozuvning kognitiv bosqichlari	jarayon (socio- cognitive)	bruvchi vositalar modellashiruvchi (Cognitive writing process organizer, creator of rhetoric scaffolding tools)	talablariga mos matnni mustaqil yaratuvchi (Neat writer, independent rhetoric writer, self-reviewer)
<i>Hamkorlikda gi yondashuv</i>	Hamkorlikd a bilim qurish va o‘zaro ta’sir (co- construction of knowledge and interaction)	Matn yozish – hamkorlikdag i faoliyat jarayoni (co- operative)	Guruh dinamikasini boshqaruvchi, jamoaviy tahrirga yo‘naltiruvchi (Facilitator& mediator)	Hamkor yozuvchi, fikrlarini ulashuvchi (co-writer, knowledge contributor)

Xulosa Yuqorida yozuv faoliyatini ifodalavchi terminlar, yozma nutqni tashkil etuvchi maxsus komponentlar, va ushbu faoliyatni o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlarni lingvodidaktik tomondan o‘rganib chidqik.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bagheri Nevisi, R. and Adibrad, Z. (2024). Exploring L2 Product/Process-Based Writing Instruction, Self-Efficacy, Writing Autonomy, Language Proficiency, and Strategy Use: A SEM Analysis. *Applied Research on English Language*, 13(1), 1-28. doi: 10.22108/are.2024.139817.2191
2. Linda Flower, & John R. Hayes (1981). *A cognitive process theory of writing*. College Composition and Communication, 32(4), 365–387. <https://doi.org/10.2307/356600>
3. Cheung (Nanyang Technological University), Yin Ling & Ng, Hong & Lim, Donna & Jang, Hari. (2019). THE "SOCIO-COGNITIVE APPROACH TO WRITING" INTERVENTION PROGRAMME. 10.13140/RG.2.2.17345.30562.
4. Dirgeyasa, I. W. Genre-Based Approach: What and How to Teach and to Learn Writing / I. W. Dirgeyasa // English Language Teaching. – 2016. – Vol. 9, No. 9. – P. 45–51. – DOI: 10.5539/elt.v9n9p45.
5. Badger, Richard & White, Goodith. (2000). A process genre approach to teaching writing. *ELT Journal*. 54. 10.1093/elt/54.2.153.
6. Kos, T., and F. Z.Lara. 2026. “Collaborative Writing and Learning of Reported Speech During Mixed-Age Peer Interactions in English as a Foreign Language Classroom.” *International Journal of Applied Linguistics* 36, no. 1: 819–834. <https://doi.org/10.1111/ijal.12810>